



BO'LAJAK TARBIYA FANI O'QITUVCHILARDA BADIY-ESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Mo'ydinova Durdona Qahramonjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsoya: mazkur maqolada bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisining badiiy-estetik madaniyatini rivojlantirishida pedagogik shart-sharoitlar shuningdek, badiiy-estetik madaniyat orqali yosh avlodga ta'lim, tarbiya berish masalalari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: badiiylilik, estetik madaniyat, estetik-ma'naviy dunyoqarash, badiiy-estetik did, vizual olam va real hayot.

СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: в данной статье говорится о педагогических условиях развития художественно-эстетической культуры будущего педагога, а также вопросах образования и воспитания подрастающего поколения через художественно-эстетическую культуру.

Ключевые слова: художественность, эстетическая культура, эстетико-духовное мировоззрение, художественно-эстетический вкус, визуальный мир и реальная жизнь.

CONTENTS OF DEVELOPMENT OF ARTISTIC-AESTHETIC CULTURE IN FUTURE TEACHERS

Abstract: this article discusses the pedagogical conditions for the development of artistic-aesthetic culture of future teachers, as well as issues of education and upbringing of the younger generation through artistic-aesthetic culture.

Keywords: artistry, aesthetic culture, aesthetic-spiritual worldview, artistic-aesthetic taste, visual world and real life.

Ma'lumki, har bir insonda estetik madaniyat shakllanadi va rivojlanadi. Bu estetik madaniyat rivojlanishi orqali inson o'zida bir qancha o'ziga xos hususiyatlarni mujassam etadi va bu shaxs madaniyatida ham oydinlashadi. "Estetika so'zini birinchi bor fanga atama sifatida olmon ma'rifatchisi, faylasufi Aleksandr Baumgarten (1714— 1782) o'zining «Poetik asarning ba'zi bir masalalari to'g'risidagi falsafiy mulohazalar» asarida kiritgan. «Estetika» atamasining tub ma'nosi yunoncha «estezis» so'zi bilan aloqador bo'lib, «sezish», «his qilish qobiliyati» ma'nosini bildiradi. Estetika haqidagi tushunchalar qadimgi Sharq va O'rta Osiyoda ham o'z taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan va rivojlangan. Buni biz qadimiy yozma va og'zaki yodgorliklar, me'moriy obidalar orqali yaxshi bilamiz". Estetika insoniyat



tarixida alohida omil sifatida o'rin egallaydi, hamda shakllanadi, rivojlanadi. Badiiylik ham estetik singari o'ziga xos hususiyatlar bilan ajralib turadi.

Endi, badiiylik va estetik tushunchalari o'zaro bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, ikki omilni bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi o'zida shakllantirib, rivojlantirishga erishsa, yaxshi kadr va pedagog bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi o'quvchilarga nafaqat ta'lim, tarbiya berishni, balki uni dunyoqarashini shakllantirishi, atrof-muhitga munosabati, jamiyatda o'z o'rnini topishida ko'maklashadi. Shunday ekan, avvalo, badiiy-estetik madaniyatni o'qituvchi o'zida rivojlantirsa ancha maqsadga muvofiq bo'ladi. Badiiylikni albatta, badiiy asarlar, badiiy kinofilmlar, badiiy adabiyotlar, badiiy san'at asarlari orqali rivojlantirish mumkin. Bu borada badiiy madaniyatni oshirishda ko'pincha badiiy asarlar va adabiyotlardan foydalanish ko'proq samara beradi. Masalan, So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asarida komil inson axloqi va yoshlar tarbiyasini, A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" idan vafodorlikni, M.Behbudiyning "Padarkush" drammasida ilmsizlik oqibatlarini, Ahmad Lutfiy Qozonchining "Saodat asri qissalari" dan esa dinimiz tarixidagi ulkan voqealardan habardor bo'lishimiz mumkin. Albatta, bunday asarlar orqali insonda badiiy tafakkur, badiiy idrok va badiiy dunyoqarash rivojlanadi. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi badiiylik orqali buyuk ajdodlarimizning oltinga teng asarlari va adabiyotlari bilan estetik xulqni, estetik madaniyatni, estetik-ma'naviy dunyoqarashni va badiiy so'z san'atini va albatta milliyligimizni o'zida mujassam etadi. Bunday rivojlanishni bo'lajak tarbiya o'qituvchisi o'zining o'quv-dars jarayonlari orqali namoyon etadi.

"Estetik madaniyat milliy ongini, ma'naviy uyg'onish va taraqqiyotni nazarda tutuvchi omillardan biri bo'lib, bir qator ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Shu bois talaba yoshlarda badiiy estetik didni shakllantirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Xususan, 2022—2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida asosiy maqsadlardan biri sifatida yoshlarning badiiy-estetik didini yuksaltirish masalasiga ham alohida urg'u berilgan. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham talabalarni adabiyot, san'at va sportga, sog'lom turmush tarziga jalb etish, ularda estetik did va kasbiy etika, axborot tahlili madaniyatini shakllantirish, vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasini ishlab chiqish va barcha oliy ta'lim muassasalarida mazkur chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta'minlashga dolzarb masala sifatida e'tibor qaratilgan." Shunday ekan, ayni damda talaba-yoshlar, ayniqsa, bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi o'zida badiiy-estetik madaniyatini shakllantirishi va rivojlantirishi darkor. Bu orqali nafaqat o'zining, balki jamiyat uchun va barkamol avlod uchun bir qancha foydali tomonlari mavjud. Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan ekan, o'quvchi-yoshlar ko'proq virtual olam bilan o'zining ma'naviy dunyosini va real hayotini bog'lab qo'yimoqda. Bunday holatlarda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda tarbiya fani o'qituvchisi muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi o'zida avvalo, badiiy-estetik madaniyatni rivojlantirishi maqsadga muvofiqdir. Badiiy-estetik madaniyat bilan nafaqat tarbiya fani o'qituvchisi balki, boshqa pedagoglar ham faoliyati davomida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda, ular bilan shug'ullanish jarayonlarida muomoli vaziyatlarga va to'siqlarga duch kelmaydi. Yoshlarga to'g'ri ta'lim-



tarbiya berishi tarbiya fani o'qituvchisining muhim vazifasi hisoblanar ekan, u bu faoliyatida o'z tajribalarini badiiy-estetik madaniyat orqali yaxshi natijalarga erishadi. Bu esa yuqorida ta'kidlaganimizdek mamlakatimiz, yurtimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

“O'qituvchi kasbiga ijobiy munosabat, badiiy, shaxsiy va estetik qadriyatlarga yo'naltirish asosan shaxsning rivojlanishini belgilab beradi. Malaka oshirish jarayoni ta'limning har qanday bosqichida kasbiy rolni bajaradigan va o'zini o'zi takomillashtirish motivatsiyasini kuchaytiradigan o'quv sharoitlarini yaratish sharoitida yangilanadi. San'atning mazmunli idrok etilishi uchun o'qitilgan mutaxassis sifatida o'qituvchining shaxsini rivojlantirish yo'llari shaxsiy xususiyatlarning nazariy va uslubiy asoslarini tushunishni didaktik prinsiplarida ajralib turmaydi. Ularning tahlili shuni ko'rsatadiki, didaktik fikr doirasidagi ilmiy-nazariy va ijtimoiy-madaniy masofadan ancha katta. Badiiy-estetik rivojlanish yo'llari va shartlarini o'rganish, maktab o'qituvchisi faoliyati tarbiyachi va kasbiy tarbiyachi faoliyatini birlashtirganligiga bizni ishontiradi. Bunday tayyorgarlikni professional o'qituvchini tayyorlash va kelajakdagi o'qituvchining ma'naviy olamini shakllantirish nuqtai nazaridan ko'rib chiqish kerak, uning maqsadi professional o'qitiladigan fan o'qituvchisi va estetik ta'limning organik qotishmasidir. Tarbiya fani o'qituvchisi o'zini professional darajadagi o'qituvchi qilish bilan birga, badiiy-estetik madaniyatni ham shakllantirishi maqsadga muvofiq. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tarbiya fani o'qituvchisi o'quvchida ma'naviy dunyoqarashni, milliyligimizni, umumbashariy qadriyatlarimizni shakllantirishda o'z faoliyatini olib borar ekan, avvalo o'qituvchi badiiy-estetik madaniyatni o'zida shakllantirishi orqali o'quvchini ham bu borada qiziqishi ortadi. Tarbiya fani o'qituvchisi bu sifatlarni rivojlantirishi orqali naqat dars jarayonlarida balki, o'quvchilarni turli xil ekskursiya sayohatlari paytida ham o'z samarasini beradi. Misol uchun, o'quvchilar ham tarixiy obidalar, muzeylar, shuningdek, kinoteatrlarga sayohati natijasida ularda ham badiiy-estetik madaniyat shakllanadi. Zero, buning natijasida badiiy-estetik madaniyat avlodma avlod shakllanishda va rivojlanishda bardavom bo'ladi. “Xullas, badiiy-estetik madaniyat milliy ongini, ma'naviy uyg'onish va taraqqiyotni nazarda tutuvchi omillardan biri bo'lib, u ulkan ijtimoiy vazifani bajaradi. O'qituvchilarda badiiy-estetik madaniyatni rivojlantirish ularning kasbiy mahoratini oshirish va ta'lim jarayonida samarali natijalarga erishish uchun muhim hisoblanadi. Shu jumladan, bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilar badiiy-estetik madaniyat bo'yicha maxsus kurslar va seminarlarni o'z ichiga oluvchi malaka oshirish dasturlarida ishtirok etishlari kerak. Bu dasturlar ularning badiiy bilimi va estetik didini rivojlantirishga yordam beradi. Teatr, muzey, galereya kabi madaniy joylarga tashrif buyurishga undash. Badiiy tadbirlar, ko'rgazmalar va kontsertlarga qatnashish orqali ular san'at asarlaridan ilhomlanib, o'zlarining badiiy-estetik dunyoqarashlarini kengaytirishlari mumkin. Kutubxonalarni badiiy va estetik mavzular bo'yicha keng qamrovli adabiyotlar bilan boyitish. Badiiy asarlarni o'qish va tahlil qilish, o'qituvchilarga estetik madaniyatni chuqurroq anglash imkonini beradi. Zamonaviy texnologiyalar va internet imkoniyatlaridan foydalanib, badiiy va estetik resurslarga kirish. Masalan, onlayn san'at darslari, virtual muzey ekskursiyalari va boshqa raqamli platformalar orqali badiiy-estetik bilimlarni boyitish. Ushbu yo'nalishlar o'qituvchilarda



badiiy-estetik madaniyatni rivojlantirishga yordam beradi va ularning ta'lim jarayonida yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda badiiy tarbiyaning asosiy maqsadi – munosabatlarni san'at vositalari yordamida shakllantirishdir. Estetik tarbiya bilan badiiy tarbiyani bir-biriga tenglashtirish ham, qorishtirish ham, qarama-qarshi qo'yish xam xato bo'lardi. Shuni nazarda tutish lozimki, estetik tarbiya san'at bilan chegaralanib qolmaydi, balki uning asosiy mazmuni insonning voqelikka estetik munosabatini faollashtirish va rivojlantirishdan iboratdir. Voqelikka estetik munosabat o'z xususiyatlariga ega bo'lgan holda nisbiy mustaqillikka ham ega bo'lib, foydali-amaliy, ilmiy-nazariy munosabatlarni xam o'z ichiga oladi. Binobarin, voqelikka bo'lgan inson munosabatining xar qanday ko'rinishi estetik mazmundan ajralib qolsa, u asl insoniy mohiyatini yo'qotib qo'yadi. Ko'rinish turibdiki, estetik munosabat hayotga iste'molchilik nazari bilan qarashdan xalos bo'lish, dunyoga keng va xolis qarash, odamlarda, tabiat voqea-hodisalarida, narsalarda, eng avvalo, jamiyat, insoniyat, taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan ijtimoiy axamiyatli bo'lgan fazilatlarni ko'ra olish qobiliyatini tarbiyalaydi. Estetik tarbiya, eng avvalo, kishilarning estetik didlari shakllanishiga katta ta'sir o'tkazadi. Shaxs o'zligi uning estetik didi orqali namoyon bo'ladi. Estetik didda inson aqliy va hissiy dunyosi, orzu-umidlari, talab-ehtiyojlari, maqsadmanfaatlari ro'yobga chiqishi ifodalanadi. Did faqat kayfiyat baholarigina emas, balki insonning samarali faoliyati vositasida ham tarkib topadi. Inson faoliyatining barcha samarali faoliyatlarida uning didi aks etadi. Estetik tarbiya o'z diqqat-e'tiborini shaxs estetik ehtiyojlarini shakllantirishga qaratadi, xilma-xil o'ta murakkab talab-ehtiyojlarni birlashtiradi, uyg'unlashtiradi va hamoxang tarzda amal qilishi uchun shartsharoitlar yaratib beradi. Estetik tarbiyaning inson talab-ehtiyojlari madaniyatini shakllantirishdagi o'rni ham beqiyosdir, zero insonning talab-ehtiyojlari madaniyatida muayyan mezon tuyg'usi ham mavjud bo'lishini, bu mezon tuyg'usi shaxsiy ehtiyojni jamiyat ehtiyoji bilan mutanosib tarzda qo'shib olib borishni taqozo etadi. Ana shu mezon tuyg'usida yetuklikka erishish estetik tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir. Estetik ehtiyoj faqat moddiy va ma'naviy go'zalliklardan lazzatlanishgina emas, balki har qanday amaliyot sohasida narsalarni nafosat qonunlariga rioya qilgan holda yaratishni, faoliyatga go'zallikni tatbiq qilishni ham bildiradi. Shu bois estetik tarbiya hayot jabhalarining hammasiga, ya'ni o'qish, mehnat qilish, ilmiy va texnik izlanish, jamoaviy faoliyatga tatbiq etilishi lozim bo'ladi. O'smir yoshdagilar, talabalarni estetik tarbiyalash va rivojlantirish estetik tarbiya tizimi yordamida amalga oshadi. Estetik tarbiyani tashkil etish tizimida qator tamoyillar yotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tojiboyev, J. U. O. G. L. (2022). Talabalarda Estetik Madaniyatni Rivojlantirishning Pedagogik Shart-Sharoitlari. *Academic Research In Educational Sciences*, 3(1), 585-594.
2. Karimova, B. K., & Oripova, M. S. (2021). Formation Of National Pride Based On Hadiths In Primary School Children Of Houses Of Kindness. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 652-665.



3. Karimova, M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). Pedagogical Basis Of The Use Of Universal And National Values In The Spiritual And Moral Education Of Children In The Family. *Palarch's Journal Of Archaeology Of Egypt/Egyptology*, 17(7), 8547-8555.
4. Muhammadjonovna, U. N., Makhmutovna, T. H., & Kurbonovich, M. U. (2020). Improving The Mechanism Of Increasing The Social Activity Of Young People In The Development Of A Democratic And Legal Society. *Jcr*, 7(12), 3133-3139.
5. Mukhammedovna, U. N., & Oyturaxonovna, I. S. (2019). Improving Social Activity Of Youth In Uzbekistan As The Democracy And Development Of Legal Society. *European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol*, 7(12).
6. Saidkulovich, S. B., & Ugli, T. J. U. The Social Pedagogical Necessity Of Developing Students' Aesthetic Culture In The Process Of Globalization. *International Journal Of Innovations In Engineering Research And Technology*, 8(1), 75-77.
7. Shermukhammadov, B. (2022). Creativity Of A Teacher In An Innovative Educational Environment. *Journal Of Higher Education Theory And Practice*, 22(12), 127.
8. Siddikov, B., & Djalalov, B. (2020, December). Modernization Of Education-The Future Innovative Competence Of Teachers As A Main Factor Of Formation. In *Конференции*.
9. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). The Pedagogical System Of Preparing Boys For Family Relationships In General Secondary Schools. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 48(8).
10. Umidjon O'g'li, T. J. (2022, November). Kreativ Yondashuv Asosida Talabalarning Estetik Kompetentligini Rivojlantirish Dolzarb Pedagogik Muammo Sifatida. In *Interdiscipline Innovation And Scientific Research Conference (Vol. 1, No. 3, Pp. 42-44)*.
11. Yesenova Nursaule, TALABA YOSHLARDA BADIY-ESTETIK DIDNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI, (2022-Y)